ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 4/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 4/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 4/1

ТОШКЕНТ-2026

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4/1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-4/1

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Заитов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Farfiev Baxrom
FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI……...5

2. Karimov Bobir
YANGI ÖZBEKISTON ŞAROITIDA YOŞLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRIŞNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI……16

3. Yunusov Kamaldin
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI…….24

4. Сабирова Умида, Нигматуллина Алина, Румянцева Екатерина
НЕЭТИЧНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА…….31

5. Якубов Ильдар
СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: КАК СОТРУДНИЧЕСТВО ВЛИЯЕТ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….40

6. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA INKLYUZIV TARAQQIYOTNING SOTSIOLOGIK DISKURSI…..48

7. Musurmanov Nodirbek
INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI……56

8. Alimuxamedova Nodira
GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI……65

9. Nematova Dilfuzaxon
JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI……..71

10. Qosimov Vohid
DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA’MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI…….78

11. Husenov Sirojiddin
IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAKATI BILAN UYĞUNLIGI……..88

12. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA KAFOLATLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLAŞ IMKONIYATLARI…….93

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Nematova Dilfuzaxon,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi v.b dotsenti (PhD)
e-mail: dilfuzanematova58@g.mail.com

JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24134469

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga do‘stlar, hamkasblar va professional hamkorlar bilan bog‘lanish imkonini beradi. Bu jarayon shaxsiy va professional tarmoqlarni kengaytirishga, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu xususiyat barcha uchun muhim, chunki ular o‘z ijtimoiy muhitini virtual makonda ham yaratishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn tarmoqlarda shakllangan munosabatlar yoshlarning real hayotdagi ijtimoiy tarmoqlariga ham sezilarli darajada ta’sir qiladi. Maqolada, ijtimoiy tarmoqlar insonlarning o‘zaro aloqalarini kuchaytirishi, shuningdek, ularni birlashish va jamoaviy faoliyatga jalb qilishda vosita vazifasini bajarishi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, tadqiqotlar, axborot jamiyati, Manuel Castells,Danah Boyd,foydalanuvchilar,internet, strategiya

---

Нематова Дилфузахон,
университет журналистики
и массовых коммуникаций Узбекистана,
и.о. доцента кафедры социально-гуманитарных наук,
доктор философии (PhD)
e-mail: dilfuzanematova58@g.mail.com

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА И ЛЮДЕЙ

АННОТАЦИЯ

Сегодня социальные сети позволяют пользователям общаться с друзьями, коллегами и профессиональными партнерами. Этот процесс служит расширению личных и профессиональных связей, а также укреплению сотрудничества. Данная особенность имеет важное значение для молодежи, поскольку позволяет им создавать свою социальную среду в том числе и в виртуальном пространстве. Исследования показывают, что отношения, сформированные в онлайн-сетях, оказывают существенное влияние и на реальные социальные связи молодых людей. Как отмечает Бойд, социальные сети не только усиливают взаимные контакты молодежи, но и выступают инструментом для их объединения и вовлечения в коллективную деятельность.

Ключевые слова: социальные сети, исследования, информационное общество, Мануэль Кастельс, Дана Бойд, пользователи, интернет, стратегия.

Dilfuzakhon Nematova,
University of Journalism and Mass
Communications of Uzbekistan, Acting Associate Professor,
Department of Social Sciences and Humanities,
Doctor of Philosophy (PhD).
email: dilfuzanematova58@g.mail.com

THE IMPORTANCE OF SOCIAL NETWORKS IN THE LIVES OF SOCIETY AND INDIVIDUALS

ABSTRACT

Today, social networks enable users to communicate with friends, colleagues, and professional partners. This process helps expand personal and professional connections, as well as strengthen cooperation. This feature is particularly important for young people, as it allows them to build their social environment, including in virtual spaces. Research shows that relationships formed through online networks also have a significant impact on young people's real-life social connections. As Boyd points out, social networks not only strengthen interpersonal connections among young people but also serve as a tool for bringing them together and engaging them in collective activities.

Keywords: social networks, research, information society, Manuel Castells, Danah Boyd, users, internet, strategy.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining insonlar kundalik hayotiga tobora çuqur kirib borayotganligidir. Ayniqsa, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir körsatuvçi muhim kommunikativ makonga aylanmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish va muloqot qilish vositasi, balki jamoatçilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, fuqarolik faolligini oshirish hamda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir körsatuvçi öziga xos ijtimoiy institut sifatida namoyon bölmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati, avvalo, ularning insonlar örtasidagi muloqot shakllarini özgartirishi, axborot olish va tarqatish imkoniyatlarini kengaytirishi, hududiy va vaqt çegaralarini nisbatan qisqartirishi bilan belgilanadi. Facebook, Instagram, Telegram, YouTube, TikTok kabi raqamli platformalar orqali insonlar özaro fikr almashish, ijtimoiy munosabatlarni yölga qöyish, bilim va tajriba orttirish, kasbiy faoliyatini rivojlantirish hamda turli ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bölmoqda. Natijada virtual kommunikatsiya an’anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy boğlanib, jamiyatning kommunikativ tuzilmasida yangi ijtimoiy aloqalar va özaro ta’sir shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Sotsiologik nuqtayi nazardan, ijtimoiy tarmoqlar insonlarning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori, ehtiyojlari va manfaatlariga ta’sir körsatuvçi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, yoshlarning ijtimoiylashuvi, shaxsiy identifikatsiyasining shakllanishi, ijtimoiy mavqeyini namoyon etishi hamda jamiyatdagi voqea-hodisalarga munosabat bildirishida raqamli kommunikatsiya vositalarining örni tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarning ijtimoiy faolligini rağbatlantirish, jamoatçilik nazoratini kuçaytirish, davlat va jamiyat örtasidagi muloqotni rivojlantirish hamda ijtimoiy muammolar yuzasidan jamoaviy munosabatni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi muayyan ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, yolğon va manipulyativ axborotlarning tarqalishi, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligining buzilishi, kiberzöravonlik, internetga haddan tashqari boğlanib qolish, virtual

muloqotning real ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’siri kabi holatlar alohida e’tiborni talab etadi. Ayniqsa, yoshlarning axborotni tanqidiy baholash könikmalari yetarliça shakllanmagan sharoitda ijtimoiy tarmoqlardagi turli axborot oqimlari ularning ijtimoiy qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvoriga salbiy ta’sir körsatishi mumkin. Bu esa raqamli savodxonlikni rivojlantirish, axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirish hamda ijtimoiy tarmoqlardan mas’uliyatli foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi Özbekiston sharoitida jamiyat hayotining turli sohalarini raqamlashtirish, elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish, axborot oçiqligini ta’minlash va fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyatini yanada kuçaytirmoqda. Mazkur jarayonlar ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat kommunikativ imkoniyatlarini, balki ularning ijtimoiy integratsiya, jamoatçilik fikri, fuqarolik ishtiroki va ijtimoiy nazorat mexanizmlariga ta’sirini ham ilmiy jihatdan örganishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, jamiyat va insonlar hayotida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan örnini sotsiologik jihatdan tadqiq etish, ularning ijtimoiy munosabatlar, shaxsning ijtimoiylashuvi, jamoatçilik fikri va fuqarolik faolligiga ta’sirini aniqlash, shuningdek, ijobiy imkoniyatlari hamda ehtimoliy salbiy oqibatlarini ilmiy asosda baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy jamiyatdagi funksional xususiyatlarini oçib berish, raqamli kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni asoslashga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy jamiyatdagi örni, kommunikativ imkoniyatlari, ijtimoiy integratsiyaga ta’siri hamda ular bilan boğliq muammolarni örganishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-gumanitar yondashuv.Ushbu metodologiya doirasida ijtimoiy tarmoqlar bir vaqtning özida axborot almashish vositasi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvçi muhit va jamoatçilik fikriga ta’sir körsatuvçi platforma sifatida tahlil qilinadi.

Tizimli yondashuv – ijtimoiy tarmoqlarning kommunikatsiya, ijtimoiy integratsiya, siyosiy faollik va axborot tarqalishidagi özaro boğliq funksiyalarini örganish.

Ijtimoiy-kommunikativ yondashuv – foydalanuvçilar, jamoalar va davlat organlari örtasidagi muloqot jarayonlarini tahlil qilish.

Tanqidiy yondashuv – soxta axborot, feyk akkauntlar, manipulyatsiya va smartfondan ortiqça foydalanish bilan boğliq xavflarni körib çiqish.

Manuel Castellsning fikriça, ijtimoiy tarmoqlar “axborot jamiyati”ning markaziy tuzilmalari bölib, ular orqali jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari shakllanadi [1]. Bu jarayon nafaqat shaxslararo muloqot, balki guruhlar, tashkilotlar va fuqarolik institutsiyalari faoliyati uçun ham strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kley Shirki ta’kidlaganidek, ijtimoiy tarmoqlar jamoaviy harakatlarni tashkil etishda tezkor axborot yetkazish vositasi sifatida ishlatiladi [2]. Norozilik aksiyalari, madaniy kampaniyalar va ijtimoiy tashabbuslar foydalanuvçilar örtasidagi tezkor muloqot orqali samarali böladi.

N.Ellison va D.Boydlar esa,öz tadqiqotlarida onlayn ijtimoiy aloqalar yoshlar va kattalar örtasida ijtimoiy qöllab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda qanday ishlashini ilmiy taxlil qiladilar. Ular ijtimoiy tarmoqlar shunçaki köngiloçar maskan emas, balki insonlarga ruhiy, axborot va ijtimoiy yordam körsatuvçi raqamli tizim ekanligini quyidagi **3 ta asosiy mexanizm** orqali ilmiy tahlil qilib berganlar.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda axborot, kommunikatsiya va ijtimoiy integratsiyaning muhim vositasiga aylangan. Ispaniyalik sotsiolog Manuel Castellsning fikriça, ijtimoiy tarmoqlar “axborot jamiyati”ning markaziy tuzilmalari bölib, ular orqali jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari shakllanadi [3]. Bu jarayon nafaqat shaxslararo muloqot, balki guruhlar, tashkilotlar va fuqarolik institutsiyalari faoliyati uçun ham strategik ahamiyatga ega.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning integratsion vositasi sifatida qaraladi. Ular turli guruhlar va individlarning özaro aloqasini ta’minlab, axborot almashishdan tortib, siyosiy va madaniy faollikka qadar keng kölamdagi

jarayonlarda ishtirok etadi. Quyida ularning asosiy funksiyalari va ilmiy tahlili keltiriladi: ijtimoiy tarmoqlarning eng markaziy funksiyalaridan biri – axborotni tezkor tarzda tarqatishdir. Foydalanuvçilar yangiliklar, rasm, video, blog postlar va boshqa kontentni onlayn platformalarda bir zumda ulashishi mumkin. Bu funksiyaning yoshlar va jamoaviy guruhlar hayotidagi roli katta. Masalan, amerikalik sotsiolog Danah Boyd tadqiqotlarida yoshlarning onlayn muloqoti ularning bilim olish, tanishlik va qöllab-quvvatlash tizimini shakllantirishda qanday rol öynashini yoritadi [4].

Taniqli amerika yozuvçisi Kley Shirki ta'kidlaganidek, ijtimoiy tarmoqlar jamoaviy harakatlarni tashkil etishda tezkor axborot yetkazish vositasi sifatida ishlatiladi [5]. Norozilik aksiyalari, madaniy kampaniyalar va ijtimoiy tashabbuslar foydalanuvçilar örtasidagi tezkor muloqot orqali samarali böladi.

Ijtimoiy tarmoqlar döstlik, professional hamkorlik va guruhlar shakllanishiga xizmat qiladi. Ular foydalanuvçilarga virtual muhitda ijtimoiy tarmoqlarini kengaytirish va saqlash imkoniyatini beradi. Shaxslararo aloqalar: yoshlar va kattalar ijtimoiy tarmoqlar orqali döstlik aloqalarini mustahkamlash, yangi tanishliklar örnatish va mavjud aloqalarni rivojlantirish imkoniga ega. Professional hamkorlik: LinkedIn kabi platformalar professional tarmoqlarni shakllantiradi va ishbilarmonlik aloqalarini kengaytiradi. Bu esa jamiyatdagi iqtisodiy va kasbiy integratsiyani rivojlantiradi.

Amerikalik sotsiologlar N.Ellison va D.Boydlar esa,öz tadqiqotlarida onlayn ijtimoiy aloqalar yoshlar va kattalar örtasida ijtimoiy qöllab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda qanday ishlashini ilmiy taxlil qiladilar. Ular ijtimoiy tarmoqlar shunçaki köngiloçar maskan emas, balki insonlarga ruhiy, axborot va ijtimoiy yordam körsatuvçi raqamli tizim ekanligini quyidagi **3 ta asosiy mexanizm** orqali ilmiy tahlil qilib berishgan [6]:

1. Yaqin aloqalar : Bu oila a'zolari va eng yaqin döstlar bilan aloqalardir. Tarmoqlar ushbu guruh bilan masofadan qat'iy nazar doimiy muloqotda bölish, qiyin vaziyatlarda tezkor **hissiy dalda** olish imkonini beradi.

2. Kuçsiz aloqalar: Bunga tanishlar, hamkasblar va guruhdoshlar kiradi. Olimlarning ta'kidlashiça, ijtimoiy tarmoqlar aynan mana shu "kuçsiz aloqalarni" saqlab qolish va faollashtirishda inqilob qildi. Insonlar qiyin vaziyatga tushganda yoki yangi axborot (masalan, ish qidirish, shifokor tavsiyasi, öqishga kirish) kerak bölganda, öz tarmoqlariga murojaat qilib, keng jamoatçilikdan **axborot körinishidagi ijtimoiy kömak** oladilar.

3. "Yashirin aloqalar"ni faollashtirish:ijtimoiy tarmoqlarning eng muhim xususiyatlaridan biri – **"yashirin aloqalar"ni** jonlantirish qobiliyati ekanligi körsatilgan. Masalan, maktabni bitirib ketgan yoshlar yoki boshqa shaharga köçgan kattalar vaqt ötishi bilan aloqani yöqotadi (bular yashirin aloqalarga aylanadi). Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, LinkedIn va b.) esa ushbu aloqalarni saqlab qoladi. Natijada, inson hayotida inqiroz yoki qöllab-quvvatlashga ehtiyoj tuğilganda, uzoqlashib ketgan eski tanishlar ham yordamga kelishi osonlashadi.

Turk sotsiologi Zeynep Tufekci esa ijtimoiy tarmoqlarni tezkor mobilizatsiya va norozilik harakatlarida vosita sifatida tahlil qiladi .Ijimoiy tarmoqlar foydalanuvçilarga öz profillari orqali ijtimoiy identitetini yaratish imkonini beradi. Bu jarayon quydagiça ifodalanadi:

A) Shaxsiy ifoda: Yoshlar öz qiziqishlari, fikrlari, ijodiy ishlari va kasbiy yutuqlarini namoyon qiladi.

B) Jamiyatdagi rolni belgilash: Virtual profillar orqali foydalanuvçilar özining ijtimoiy va madaniy rolini aniqlaydi.

B) Tadqiqotlar natijasi: yuzaki faollik va passiv kuzatuvçilar sonining ortishi mumkinligini ham qayd etadi. Ijtimoiy tarmoqlar guruhlarni tezkor birlashtirish va aksiyalarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi [7].

Ijtimoiy tarmoqlar guruhlarni tezkor birlashtirish va aksiyalarni tashkil etish imkoniyatini beradi jumladan,siyosiy jarayonlarda onlayn platformalar kampaniyalar, saylovoldi tashviqotlar va fuqarolik aksiyalarini samarali tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan, Arab bahori, 2011-yildagi AQShda boshlangan yirik iqtisodiy va ijtimoiy norozilik namoyishlari kabi harakatlarda ijtimoiy tarmoqlar jamoaviy mobilizatsiya vositasi bölgan [8]. Madaniy va ijtimoiy kampaniyalar esa

yoshlarni birlashtiradi, ularning fikrlar almashishini va birgalikdagi ijodiy faoliyatlarini rağbatlantiradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ijtimoiy tarmoqlar shunçaki kommunikatsiya vositasi emas, balki axborot almashish, ijtimoiy integratsiya, shaxsiy identifikatsiya va jamoaviy faollikni shakllantiruvçi kompleks platformadir. Ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati,insonlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish ,axborot oqimini tezkor va samarali ta’minlashdan iboratdir.Undan tashqari jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni qöllab-quvvatlash funktsiyasi ham mavjuddir.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarni ilmiy tahlil qilish yoshlar ijtimoiy faolligi, guruh harakatlari va fuqarolik ongini çuqur tushunishga xizmat qiladi.Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning asosiy afzalligi, shubhasiz muloqot erkinligidir. Millionlab odamlar örtasidagi ijtimoiy munosabatlar fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar turli masalalarda odamlar bir biriga kömak beradigan maydonçaga ham aylandi. Masalan, bedarak yöqolgan shahslarni topish, yurist maslahatlari, oğir kasallar uçun mablağ yiğish, tadbirlar va aksiyalar tashkil etish, qolaversa, biznes aloqalarini örnatishda çet ellik investrlar bilan suhbat olib boorish uçun maydon vazifasini bajarmoqda. Onlayn murojaat, muloqot va munozaralar kabi intrnetning köplab imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda davlat hokimiyati va boshqaruv organlaridan zarur ma`lumotlarni tez olish, mas`ul idoralar rahbarlari bilan töğridan -töğri muloqot qilish köpdan buyon aholini qiynab kelayotgan muammolarning yeçlishiga turtki bölmoqda. Davlat hokimiyati mansabdorlari ijtimoiy tarmoqlarda öz sahifalariga ega bölishi va ular yordamida aholi bilan oçiq muloqotga kirishishiga oid köplab misollarni körmoqdamiz.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari yoki ularning matbuot kotiblari jamiyat hayotning eng muhim masalalari yuzasidan ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoq orqali aholiga tezkor va muntazam ravishda axborot taqdim etib borishlari zarur, çunki bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar muloqot maydoni bölib borishi bilan bir qatorda turli axborot va yangliklar, ma`lumotlar almashish vositasi hamdir. Tabiiyki bu jarayonda axborotni notöğri, noxolis yoki tushunmasdan talqin qilish va tarqatish holatlari ham uçrab turibdi. Bu esa öz navbatida, turli soha vakillarning xizmat mavqeyiga putr yetishiga, olib borilayotgan siyosatga nisbatan ishonçsizlik uyğonishiga sabab böluvçi omillardan biri hisoblanadi.

Axborot – u qanday bölishidan qat`i nazar hozirgi kunda odamlarga ta`sir ötkazish nuqtai nazaridan olib qaraydigan bölsak, uning ahamiyatni qurolli kuçlarga tenglashtrish mumkin. Shu bois davlat hokimiyatni saqlab qolish uning legitimligni ta`minlash uçun intrnet tarmoği orqali hamkommunikatsiyani nazoratga olish zamon talabidir. Davlat axborot makonida nazoratni örnatsa-da, ijtimoiy tarmoqlar nazoratni buzishi va muvozanatni özgartrishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda insonlar turli maqsadlarda foydalanadi va muloqot qilishadi.

Hozirgi kunda intrnet bizga döst körinishida bölib orqamizdan piçoq sançiydigan ajdarho desak mubolağa bölmaydi, insonlar undan foyda ham zarar ham körishi mumkin ammo biz uning tub-tubiga qanday kirib qolayotganimizni bilmay qolyapmiz uning haqiqatdan köra yolğoni köpligni bilamiz ammo shuni bila turib undan foydalanamiz hösh bu bizga nima bermoqda foydami yoki zarar. Intrnet tarmoğidagi öyinlar insonlarni öziga tortuvçi yana bir kuçli vositalardan biridir.

Germaniyaning Freie unversiteti Praym agentligi,ijtimoiy sohada tadqiqotlarni olib boradi.Ushbu tadqiqotlarning natijasi, ijtimoiy tarmoqlarda o‘tiradigan yoki smartfondagi o‘yinlarni yaxshi ko‘radigan odamlarda impulsivlik , o‘zini boshqarishdagi buzilish va zudlik bilan taqdirlanish va rağbatlanishga talpinishga moyil deb körsatiladi .Tadqiqotda 101 ko‘ngilli ishtirok etadi va bu olimlarga 10 kun davomida ularning smartfonidan ma’lumotlarni to‘plashga imkon bergan. Tadqiqot ishtirokçilarining barçasi qator test va topshiriqlardan o‘tishgan, olimlar shu tariqa ularning o‘z-o‘zini nazorat qilishlari va mukofotlanishga nisbatan munosabatini baholashgan [9]. Aniqlanishiça, telefonda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan ishtirokçilar keyin katta mukofotni olgandan ko‘ra, hozirning o‘zida kiçik mukofotni tanlashga moyil ekan. Ta’kidlanishiça, ular telefondan foydalanish vaqtida yoki o‘yin o‘ynayotgan yoki ijtimoiy tarmoqda o‘tirgan bo‘ladilar. O‘z navbatida, o‘z-o‘zini boshqarish bo‘yiça yuqori darajani ko‘rsatgan tadqiqot ishtirokçilari smartfonda ança kam vaqt o‘tkazgan.

Mualliflarning ta‘kidlashiça, tadqiqot natijalari smartfondan foydalanish va g‘ayri tabiiy ravishda qaror qabul qilish o‘rtasidagi bog‘liqlik borasida tobora soni ortib borayotgan dalillarni to‘ldirgan. Ular, bunday ta‘sirçanlik, maqsadga erishish uçun qulay bo‘lmagan xulq atvorga ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlashmoqda.Bugun ijtimoiy tarmoqlar Instagram, Tik-Tok,Telegram, Facebook va boshqa tarmoqlar,aholining hokimliklar bilan muloqot qilishlari uçun maydon vazifasini ötamoqda, u yoki bu hujjatlar, hodisalar va jarayonlar böyiça jamoatçilik fikrini örganishda foydalanib kelinmoqda.

Xususan, fuqarolar mansabdor shaxslarga ularning shaxsiy va u ishlaydigan davlat organining sahifalari orqali murojaat qilmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari böyiça oçiq fikr bildirmoqda, deb yozadi“Yuksalish” umummilliy harakati axborot xizmati. Qayd etilishiça, köp hollarda bu muammolarga blogerlar, alohida internet-nashrlar, ijtimoiy tarmoqlarning minglab foydalanuvçilarining faol fuqarolik pozitsiyasi tufayli özaro maqbul yeçimlarni topishga erishilmoqda.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri,buyuk siyosatçi Uinston Çerçil aytganidek: “Haqiqat ishtonini kiygunça, yolğon dunyoning yarmini aylanib çiqishga ulguradi” [10]. Feyk habarlarni tarqalishini huddu shunda baholasak böladi.Pandemiya davrida mish-mishlar va asossiz axborotlar tarqalishi odamlar orasida vahimalarga sabab böldi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda Toshkent shahrining Yunusobod tumanida öğrilar narkotik modda shimdirilgan tibbiy niqoblarni tarqatayotgani, Özbekiston böylab vertolyotlarda dezinfeksiya ishlari amalga oshirilishi haqidagi yolğon xabarlar, karantin paytida har bir yurtdoshlarimizga haftasiga 300 ming sömdan berilishi, pandemiya sabab kirish imtihonlari bekor qilinishi va boshqa shu kabi mish-mishlar tarqaldi.

Davlat tuzilmalari bularning barçasini rad etdi va fuqarolarni yolğon axborotlarni tarqatishdan avval ma’lumotlarini tekshirishga çaqirdi. Yana bir salbiy jihat bu -feyk, ya’ni soxta akkauntlardir. Tarmoqlarda öz fikrlarini oçiq bayon qilishga, yangi tashabbus va takliflarini bildirishga tayyor fuqarolar bilan birga “trollar” deb ataladiganlar ham tez-tez maydonga çiqishadi. Ular öylab topilgan ismlar ostiga yashirinib, kinoyali postlar yoki jamoatçilik ongini boshqarishga urinuvçi oçiq yolğonlarni tarmoqlarga joylaydi. Izohlarda esa köpinça adabiy tilda yozishmaydi, shaxsga ötadi, odamlarni obrösizlantirishga, adovatni avj oldirishga harakat qilishadi. Bu tartibsizlik va ğalayonlarga, moliyaviy zarar körishga olib kelishi mumkin

Davlat organlari faoliyatida, ular ta’minlayotgan ma’lumotning oçiqligi va shaffofligi muhim. Murojaatlar bilan ishlash tizimini rivojlantirishga hamda rasmiy manbalarning transparentligiga zarurat bor. Bunda davlat tuzilmalarining matbuot xizmatlari asosiy rol öynaydi. Ular fuqarolarni axborot bilan ta’minlashi, ularning murojaatlariga, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar orqali yuboriladigan sörov va izohlariga, öz vaqtida javob qaytarilishiga kömaklashishi kerak. Aks ta’sirning asosiy faktorlarini tanqidiy fikrlarni shakllantirish, aholiga ma’lumotlar haqiqiyligini tekshirish - fakt-çekingga örgatish tashkil etadi.

Globallashuv tubdan yangi shaklda rivojlana boshlaydi - internet orqali inson faoliyati turli sohalarini birlashtirish usuli sifatida ishlaydi. Tarmoqning rivojlanish tendensiyasi - bu individual ehtiyojlarni qondirishga tobora töliq moslashish, ammo eshkak eshish jellari va bu öz navbatida interaktivlik erkinli’i darajasining oshishiga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi sifatida shakllanib, turli sohalarda çuqur ta’sir körsatmoqda. Ular avvalo kommunikatsiya va axborot almashish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi, shuningdek, odamlarning bir-biri bilan muloqot qilish, yangiliklardan xabardor bölish va fikr almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa nafaqat individual, balki jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotida ham faol ishtirokni rağbatlantiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim va shaxsiy rivojlanishga ta’siri ham katta ahamiyatga ega. Ular öquv kurslari, vebinarlar, elektron kutubxonalar va turli bilim bazalariga kirish imkonini berib, malaka oshirish va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, biznes va marketing sohalarida ijtimoiy tarmoqlar mahsulot va xizmatlarni reklama qilish, maqsadli auditoriyani aniqlash va savdo hajmini oshirish uçun samarali vosita sifatida qöllaniladi.

XULOSA

Jamiyatdagi ijtimoiy faollik va jamoatçilik fikrining shakllanishi ham ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshadi. Platformalar jamoalarni birlashtirish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish va ularni hal etishda yordam berish orqali ijtimoiy jarayonlarga ta’sir körsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy oqibatlar ham mavjud: feyk xabarlar va notöğri axborotning tez tarqalishi, haddan tashqari foydalanish natijasida vaqt va resurslarning behuda sarflanishi, shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar va psixologik muammolar paydo bölishi mumkin.Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar ikki tomonlama ta’sir körsatadigan platformalar hisoblanadi. Ularning ijobiy ta’siri ongli va maqsadli foydalanish orqali jamiyat rivoji, shaxsiy bilim va kompetentsiyalarni oshirish hamda ijtimoiy faollikni rağbatlantirishga xizmat qiladi. Notöğri yoki haddan tashqari foydalanish esa axborot xuruji, kiberxavfsizlik muammolari va psixologik qaramlik kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarni samarali boshqarish va ularni mas’uliyat bilan qöllash zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Castells, M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society, and Culture. Vol. I. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2000. – P. 501–503.
2. https://www.ted.com/speakers/clay_shirky
3. Castells, M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society, and Culture. Vol. I. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2000. – P. 501–503.
4. Boyd, D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. – New Haven: Yale University Press, 2014. – P. 45–46.
5. https://www.ted.com/speakers/clay_shirky
6. https://www.danah.org/papers/JCMCIntro.pdf
7. Tufekci, Z. Twitter and Tear Gas: The Power and Fragility of Networked Protest. – New Haven: Yale University Press, 2017. – P. 23.
8. Tufekci, Z. Twitter and Tear Gas: The Power and Fragility of Networked Protest. – New Haven: Yale University Press, 2017. – P. 23–30.
9. Tim Schulz van Endert & P. N. C. Mohr, Likes and impulsivity: Investigating the relationship between actual smartphone use and delay discounting, PLOS ONE, 18 november 2020.
10. Cherchil, W. Churchill by Himself: The Definitive Collection of Quotations. – New York: PublicAffairs, 2008. – P. 112.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000